

Ibragimova Dilnoza Samandarovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani

247- maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatи va sharoitga qarab tanlanadi.*

Kalit so'zi: *natija, metod, texnologiya, samarali usul.*

Abstract: *It is up to the teacher and the student to choose the technology to achieve the goal, because the main goal of both parties is to achieve a specific result, and the technology used is selected depending on the level of knowledge of the students, the nature of the group, and the situation.*

Key word: *result, method, technology, effective method.*

KIRISH

O'zbek xalqi juda qadim zamonlardoq ilm-fanga katta e'tibor bilan qaragan va uni rivojlantirishga harakat qilgan. Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Amir Temur, Ulug'bek va boshqa ko'plab allomalar ilm-fanni dunyoga tanitganlar. Ilm-ma'rifatga beqiyos hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin o'z farzandlarini savodli bo'lismeni orzu qilganlar. Farzandlarini yoshligidanoq maktabga – o'qishga bergenlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib, bolalarga saboq bergenlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib brogan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Charxpakalak". Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'zo'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

"Charxpakalak" texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi: - o'quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi; - tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi; - belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng

burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o’zining ramziy belgisini qo’yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo’nalishida almashtiradilar;- boshqa guruh a’zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o’zgartirishlar kiritadilar;- materialning oxirgi almashishidan so’ng har bir guruh o’zi ilk bor to’ldirgan tarqatmani o’z ramziy belgisi asosida tanlab oladi; - o’qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o’qiydi va jamoa bilan birgalikda to’g’ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to’g’ri javob aytib o’tiladi;- har bir o’quvchi to’g’ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o’zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalangan holda mashg’ulot o’tkazish uchun o’quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin: Mavzu: So’z ma’nosining ko’chish usullari.

Vazifa: Berilgan gaplardagi ma’no ko’chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo’ying. Baholash: 9-10 ta to’g’ri javob – “a’lo” 7-8 ta to’g’ri javob – “yaxshi” 6 ta to’g’ri javob – “qoniqarli” “Taqdimot” usuli. Ushbu usulda ma’lum bir mavzu yoki bo’limlar yakunida o’tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o’quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo’yicha mustaqil izlanib, materiallar to’playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib taqdimot qiladi.

Masalan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqdimot darsi o’tkazilganda o’quvchilarni avvaldan guruhlarga bo’lib, quyidagi yo’nalishlar bo’yicha taqdimot qilish topshiriladi: 1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring. 2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring. 3-guruh. Alisher Navoiy lirkasini “Kungaboqar” usuli asosida tushuntiring. 4-guruh. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini konseptual jadval asosida tushuntiring. Har bir guruh berilgan yo’nalishlar bo’yicha darslik va qo’shimcha adabiyotlardan foydalanib ma’lumot to’playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang’ich sinf o’quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o’quvchi va o’qituvchining birgalikdagi faoliyati bo’lib, o’quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo’llashga o’rgatadi. O’qituvchining asosiy vazifasi esa, o’quvchilarga aniq yo’nalish berish, to’g’ri xulosalarni aytishdan iborat.

Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o’qituvchi o’quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to’g’ri xulosani aytadi, natijada o’quvchi o’z xatosini tushunib, fikrlashdan to’xtamaydi va ular o’rtasidagi doimiy faoliik ta’milanadi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali

natija beradi. Yuqorida ko'rsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol bo'ladi. "Tovush va harf" bo'limining dastlabki mashqlari ham o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish uchun berilgan. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi. "Sinkveyn" metodi. Sinkveyn so'zining ma'nosi "beshlik" bo'lib, "Qofiyalanmagan besh qatorlik she'r" degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar "Sinkveyn" metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga ko'ra birinchi qator bitta so'zdan iborat bo'lishi va bu ot so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, ikkinchi qator ikkita so'zdan iborat bo'lishi va bu sifat so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, uchinchi qator uchta so'zdan iborat bo'lishi va bu fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, to'rtinchi qatorda to'liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so'zga sinonim bo'lgan bir so'z qo'yilishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o'quvchilarni ham birbirlarining so'zlariga e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. E'tiroz yoki qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizlarning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bu tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o'z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Ma'lumki, ona tili darsida ham lug'at ishlarini o'tkazish o'quvchilarda o'zi uchun notanish bo'lgan so'zni izohi haqida qiziqish paydo bo'ladi. Bu so'zlarning izohini topishda o'quvchining o'zi mustaqil izlanishi maqsadga muvofiqidir. Bunda quyidagi metod o'quvchilarning so'z boyligini oshirish bilan bir qatorda lug'at bilan ishlashga ham o'rgatadi. Darslarda interaktiv usullar qo'llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi. O'qituvchi o'quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O'quvchilarning sinfda o'zini erkin his qilishi va o'quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o'zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

O'zbek tili mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili, uning umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'qitilishi davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlash, tilimizning boy imkoniyatlaridan nutq sharoitiga ko'ra to'g'ri, o'rinli va samarali foydalanish malaka va ko'nikmalarini singdirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'analarimiz ruhida tarbiyalashda maktab ona tili kursining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil Respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi o'ta muhim vazifa bo'lib turgan

bir sharoitda bu fanning o'qitilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda ona tilini o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan vazifalaridan kelib chiqadi. CHunki kishilar o'z faoliyatlarini barcha sohalarda bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rabi turgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar, voqeа-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'qul qiladilar. Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar o'rtasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi SHuning uchun avvalo, har bir kishi undan fodalanishni bilishi va avvalo uni egallab olishi zarur. Tilni o'rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarni o'zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash malakalarini egallahdan iboratdir. Ona tili fani bolaga tilni o'rgatish bilan birga uning serqirra imkoniyatlarini nutqda foydalanish me'yorlarini ham o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Rafiyev A. , G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejorashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012